

6-29-2019

THE HISTORY OF LEARNING OF SOME FORMULAS IN THE UZBEK LANGUAGE

F.G. Sharipov
Gulistan State University

M.X. Raupov
Gulistan State University

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/gulduvestnik>



Part of the [Arts and Humanities Commons](#)

Recommended Citation

Sharipov, F.G. and Raupov, M.X. (2019) "THE HISTORY OF LEARNING OF SOME FORMULAS IN THE UZBEK LANGUAGE," *BULLETIN OF GULISTAN STATE UNIVERSITY*: Vol. 2019 : Iss. 2 , Article 8.
Available at: <https://uzjournals.edu.uz/gulduvestnik/vol2019/iss2/8>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in BULLETIN OF GULISTAN STATE UNIVERSITY by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact brownman91@mail.ru.

O'ZBEK TILIDAGI AYRIM SHAKL YASOVCHI AFFIKSLARNING O'RGANILISH TARIXI

F.G.Sharipov, M.X.Raupov
Guliston davlat universiteti, 120100.Guliston sh.
E-mail: fazliddindpr@mail.ru

Abstract

THE HISTORY OF LEARNING OF SOME FORMULAS IN THE UZBEK LANGUAGE

F.G.Sharipov, M.X.Raupov

In our opinion, the article discusses the use of some formulas of the Uzbek language in the modern Uzbek language, linguistic commentators affixes, phonetic versions of the current affixes in the Uzbek language, was based on existing scientific literature.

Keywords: affiks, variant, Uzbek language history, etymology, Turkish language.

Annotatsiya

O'ZBEK TILIDAGI AYRIM SHAKL YASOVCHI AFFIKSLARNING O'RGANILISH TARIXI

F.G.Sharipov, M.X. Raupov

Maqolada o'zbek tilidagi ayrim shakl yasovchi affikslarning hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanilish o'rinlari, affikslar xususidagi tilshunos olimlarning fikrlari ko'rib chiqilgan, affikslarning turkiy tillardagi fonetik variantlari ochib berilgan, qo'shimchalarning kelib chiqishi, mavjud ilmiy adabiyotlarga tayanilgan holda, aniqlangan.

Kalit so'zlar: affiks, variant, o'zbek tili tarixi, etimologiya, turkiy til.

Аннотация

ИСТОРИЯ ИЗУЧЕНИЯ НЕКОТОРЫХ ФОРМООБРАЗУЮЩИЕ АФФИКСЫ НА УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Ф.Г. Шарипов, М.Х. Раупов

По нашему мнению, в статье рассматриваются вопросы использования некоторых формул узбекского языка в современном узбекском языке, лингвистические комментаторы аффиксов, фонетические варианты текущих аффиксов на узбекском языке, был основан на существующей научной литературе.

Ключевые слова: аффикс, вариант, история узбекского языка, этимология.

Ma'lumki, o'zbek tilshunosligida hozirgi kunga qadar tilning turli sathlariga oid juda ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Tilshunoslarimiz, ayniqsa, o'tgan asrning 50-60-yillaridan boshlab tilimizni keng miqyosda o'rganib, tadqiqot natijalarini turli ilmiy nashrlarda e'lon qilgan. Bular qatoriga A.G'ulomov, Z.Ma'rufov, G'.Abdurahmonov kabilarni kiritishimiz mumkin. Ammo fanimizda hozirgi kunga qadar o'z yechimini topmagan masalalar salmoqli o'rinni egallaydi. Buni tilshunosligimizning istalgan bo'limidan topishimiz mumkin: *Masalan*, Leksikologiya bo'limida variantlilikning dublitdan farqli jihatlari; Sintaksis bo'limida *bolalardan biri va bolalarning biri* kabi birikmalar, morfema atamasini qo'llash yoki qo'llamaslik, so'z yasalishidagi muammoli vaziyatlarni kiritish mumkin. Ushbu maqola orqali morfologiyaning yana bir juda kam qo'l urilgan masalalaridan biriga, qo'shimchalarning etimologiyasiga, mavjud adabiyotlarga tayangan holda, oz bo'lsa ham aniqlik kiritishga harakat qiladi.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Tilshunos olimlarning til birligi bo'lgan qo'shimcha borasidagi qarashlarda tavsiflash jarayonlari obyekt sifatida tanlandi. Mavzuni yoritishda hozirgi kunda o'zbek filologiyasi, xususan, o'zbek tilshunosligida qo'shimchalarning kelib chiqishi aniqlashga harakat qilingan. Maqolaning imkoniyatidan kelib chiqib, shu o'rinda akademik A.N.Kononov, E.Fozilov, Sh.Shukurov, G'.Abdurahmonov va S.Mutallibov qarashlaridagi har xilliklar, qarama-qarshi fikrlarga e'tibor berildi. Tadqiqot jarayonida tavsiflash, qiyoslash va umumlashtirish medotlaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

-roq, -ov, -ala affikslarining qo'llanilish holatlari.

N.K.Dmitrev *-(i)roq* affiksi belgi tushunchasining asosiy miqdoriy darajalovchisi, bu turli tomonga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin, *-(i)roq* bir holatda asosiy belgi tushunchasini kuchaytirish uchun xizmat qilsa, ikkinchi holatda, ikkinchi tomondan belgining kamligini bildiradi desa, A.M.Shcherbak *-(i)roq* shakli qiyosiy daraja shakli emasligi, uning hech qachon bu vazifani bajarmaganligi haqidagi fikrini bildiradi. Shunday bo'lishiga qaramay, deyarli barcha turkiy tillar grammatikasida N.K.Dmitrev fikriga qo'shilgan holda *-(i)roq* affiksi turkiy tillardagi yagona qiyosiy daraja qo'shimchasi deb yuritiladi.

Sifat belgi ifodalarida qiyoslash darajasi ham katta o'rinni egallaydi. Bu daraja orqali belgining ortiq ekanligi, yuqori yoki pastligi qiyoslash yo'li orqali aniqlanadi. Ya'ni bunda predmetlarning o'zi yoxud ularning belgilari bir-biriga chog'ishtiriladi. Qiyosiy daraja formasini yasovchi eng muhim vositalardan biri *-roq* affiksidir. Lekin belgi anglatuvchi so'zga faqat *-roq* affiksini qo'shish bilan chog'ishtirish (qiyosiy daraja) hosil bo'lavermaydi. Bu daraja ma'nosi matndagina aniqlik kiritiladi.

Qiyos, odatda, ikki predmet (hodisa, voqea, holat) ishtirokida yuzaga keladi. Lekin nutq jarayonidan yoki mantiqan chog'ishtirish anglashilib tursa, unday holda qiyosga asos bo'ladigan obekt tushirib qoldirilib, *-roq* qo'shilgan elementning o'zigina gapda ishtirok etib qiyos hosil qilishi mumkin. *–Nafas ololmayotibman, shabadaroq joyga olib boring.* Agar bu misoldagi fikr to'liq tiklansa, *“Nafas ololmayotibman, bu yerdan ko'ra shabadaroq joyga olib boring* shaklini olar edi. *-roq* affiksining muayyan ortiqlikni yoki qiyomiga yetmaganlikni anglatishi ko'proq matnga, keyin esa, *-roq* affiksining qaysi ma'noda kelishi, chog'ishtirish vositalariga, subektning modal munosabatiga ham bog'liq: *Ahmadning bo'yi baland. Yoki Valining bo'yi undan qam balandroq.* Keyingi misoldagi *balandroq* so'zining ma'nosi *baland* so'zi ma'nosiga teng, ya'ni bu yerdagi *balandroq* so'zi o'rinda *baland* so'zini ishlatish mumkin. Qiyoslash vositalari sifatida *eng, yanada* so'zlari ham qo'llanadi. Bu vositalar qo'llanganda matn qiyosiy xarakterga ega bo'lishi shart. *Mevalar ichida eng yaxshisi uzumdir. Bugungi shamol kechagiga qaraganda yanada kuchliroq.* Bu misollardagi qiyoslash belgining ortiqligini ifodalashga qaratilgan. *-roq* affiksi ham qiyosiy affiks bo'lishi bilan birga sifatlarda ozaytirma daraja hosil qilishda qo'llanadi, ya'ni belgi ma'nosining me'yoriga yoki yuqori darajaga yetmaganligini, bir oz pastligini, kamligini ham ko'rsata oladi: *U eskiroq, juda tor kamzul, oyog'iga erkakcha tufli kiygan.* Bu misoldagi *eskiroq* so'zining ma'nosi o'sha *eski* so'zidagi o'lik ma'noga borib yetmagan, demak, *-roq* affiksi undagi belgi ma'nosini qiyoslashga emas, balki kamaytirish, zaiflashtirish uchun xizmat qilgan.

Ravishning ham qiyosiy darajasi *-roq* affiksi bilan hosil qilinadi: *sekinroq, barvaqtroq, keyinroq, beriroqqa, orqaroqda, ilgariroq* kabi. Ammo bu darajadagi ravishlar ikki aniq belgi bir-biri bilan hamma vaqt taqqoslanmay, chog'ishtirilmay, balki harakat belgisining abstraktlashtirilgan holda kuchayganligi yoki kuchsizlanganligini ko'rsatadi. *Nariroqda bir to'p odam.* Ba'zan qiyosiy darajada kuchaytiruv yoki kuchsizlantiruv ekspressiv yo'l bilan yanada orttirilgan bo'lishi mumkin. Bunda qiyosiy darajadagi ravishlar oldidan *sal, yana, tobora* kabi keladi: *yana tezroq, yana ilgariroq, tobora, yaqqolroq, sal nariroq, sal bo'g'inroq* kabi: *Sal burunroq o'tkazilsa, ancha bo'y bergan bo'ladi.*

-roq qo'shimchasi O'zbek tilining izohli lug'atida quyidagicha izohlangan: **1)** sifatlarga qo'shilib, belgi ma'nonosining me'yoriy darajaga yetmaganligini, biroz kamligini, ayni paytda chog'ishtirishni,

qiyoslashni bildiruvchi shakl yasovchi qo‘shimcha: *oqroq, sovuqroq, qalinroq, qorong‘iroq*; **2)** ravishlarga qo‘shilib, harakat belgisining u yoki bu darajasini hosil qiladi: *tezroq, ertaroq*. [8,587]

A.G‘ulomov, A.N.Tixonov, R.Qo‘ng‘urovlar O‘zbek tili morfem lug‘atida *-roq* affiksi quyidagicha izohlanadi: **1)** Sifatlariga qo‘shilib kelib, uning ozlik darajasini bildiradigan forma yasovchi affiks. Bu jihatdan u **-ish** affiksiga yaqin turadi: *oq/roq // oq/ish, ko‘k/roq // ko‘kish*. **2)** Ravishning qiyosiy darajasini hosil qiladi: *tez/roq, erta/roq, sekin/roq*. **3)** Ravishdoshlarga qo‘shilib kelganda ham shu ma‘noni beradi: *o‘xshabroq, uyali/b/roq, torti/n/ib/roq*. **4)** Sifatdoshlarda ham shunday: *o‘xshagan/roq, qizargan/roq* kabi. Buning ma‘nosi sal, biroz so‘zlariga mos keladi. Hozirgi tilda bu affiks qiyos ma‘nosida ishlatilmaydi hisob. Chunki bu ma‘no (qiyos darajasi) “...dan+ko‘ra, ...ga qaraganda, ...ga nisbatan” kabi vositalar orqali ifodalandi. *-roq* esa ortqlikning yoki kamlikning “birozgina” ekanligini bildiradi.[7,470] Boshqa turkiy tillarda bu affiks *-raq//rek* shaklida keng qo‘llanadi.

-roq affiksining etimologiyasi qadimgi *arax yuklamasi* shaklida bo‘lib, keyin affikslashgan. Xakas, shor, tuva tillarida *-(i)raq* affiksi “biroz” ma‘nosini anglatuvchi *arah, aaraq* shaklidagi yuklama bo‘lgan: **xakas**. *Xuzul arah* (qizilroq), *ko‘k arah* (ko‘kroq). Shor tilida *aarah* yuklamasi *-aruq//araq* shaklida shaklida affikslashgan: *quzulaaraq // quzularaq // quzularuq* kabi. Oltoy tilida esa mutlaq turli variantdagi affikslarga aylangan: *ag‘aruq* (oqroq) kabi.[2,109]

-ov (allomorflari : **-av// -ev// -ov // -oo // -yy// -yo// ia** [2, 116]) affiksi ham jamlovchi sonni shakllantiradi.[7,434;1,131,2,116;8,586] Bu qo‘shimcha turkiy tillarda ham faol qo‘llanadi: **o‘zbek** (**ikkov, uchov, to‘rtov**), **oltoy** (*birru, ikku, uchuu*), **bosh-qird** (*birav, ikav, uchagu*), **qozoq** (*birav, ikov, uchov*), **qoraqalpoq-balqar** (*ekev, altov*), **qirg‘iz** (*biro, ekoo, uchoo*), **no‘g‘ay** (*ushoov, altav*), **tatar** (*ikav, altav, jidav, unav*), **turkman** (*bashav, altav*), **yoqut** (*ikkie, altik*) kabi.

Bu affiks sanoq sonlarning hammasiga ham qo‘shilib kela bormay, ko‘proq 2, 3, 4 sonlariga qo‘shilib birgalik, jamlikni anglatadi (Bu affiks bir so‘ziga qo‘shilib kelganda noaniq shaxs ma‘nosini bildirib, gumon olmoshi bo‘lib keladi). *-ov* affiksi orqali yasalgan jamlovchi sonlar doimo II, III shaxs birlik va I, II, III shaxs ko‘plikdagi egalik affikslari bilan birga qo‘llanadi. Bu affiksning qo‘shilishidan hosil qilingan sonlar boshqa sonlarga o‘xshash gapda sifatlovchili aniqlovchi vazifasida kelish xususiyatiga ega emas. Ya‘ni ular ko‘pincha predmetning miqdoriga ko‘ra belgisini ko‘rsatmaydi. Bu narsa uning egalik affikslari bilan birga qo‘llanishidan, otga yaqinlashganidan kelib chiqadi. Shuning uchun ham gapda ega, qaratqichli aniqlovchi, to‘ldiruvchi, kesim bo‘lib keladi: *Yuz sentnerchi qizlarning beshovi ham saharlab dalaga yugurishga qaror qilishdi* .

Bu qo‘shimchaning etimologiyasi O‘zbek tilining tarixiy grammatikasida quyidagicha izohlangan: *-ag‘u, -ägü* affiksi asosida shakllangan: *ana-g‘u > anavu > onav, üchäv > üchävü > üchäv*). *-ag‘u/-ägü* affiksi dastlab *-g‘u/-gu* shaklida bo‘lgan, ya‘ni bu affiks *ikki, alti* sanoq sonlariga qo‘shilganda, son oxiridagi [i], [ı] unlilari [e], [a] ga aylanadi va affiks tarkibiga o‘tadi (*ikigü > ikägü, altig‘u > altag‘u*). Shu asosda bu affiks boshqa sonlarga ham *-ag‘u/-ägu* shaklida qo‘shiladigan bo‘lgan (*üch+ägü on+ag‘u* kabi), *-ag‘un /-ägün* affiksi esa *-ag‘u / -ägü* affiksiga vosita kelishigi affiksi *-n* qo‘shilishi bilan hosil bo‘lgan (*üchägü +n > üchägün*). [1,131]

Buyuk turkolog olimlar: A.G‘ulomov akademik A.N.Kononov shunday izohlaganlar: Hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi jamlovchi son *-ov* shakli quyidagicha taraqqiyot o‘zgarishlarga uchraydi: **-g‘un> + -a> g‘u + -a> ag‘ > -ov**. [8,169] Demak, bu qo‘shimchaning qo‘llanilish o‘rni va davri alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu affiks *ikki, uch, to‘rt, besh* sonlariga ko‘proq qo‘shilib kelsa ham, *olti* va *yetti* sonlariga kam qo‘shiladi. Adabiy tilda ulardan yuqori sonlarga deyarli qo‘shilib kelmaydi. Bu affiksning qo‘shilishi natijasida ham sonlarning o‘zak tarkibida yuqoridagicha o‘zgarish yuz beradi: *Ikk(i)alamiz, uchalasi* kabi, *-ala* affiksli son ham I shaxs birlikdan boshqa hamma shaxs va sondagi egalik affikslari bilan birga qo‘llanadi. Umuman olganda, *-ala* affiksining sonlarga qo‘shilishida shu narsa sezilib turadiki, bu affiks *ikki, uch* (ba‘zan *to‘rt*) sonlariga bevosita qo‘shiladi. *To‘rt, besh, olti* va *yetti* sonlariga qo‘shilganda esa, o‘zakka bevosita qo‘shilmay donalik son affiksi *-ta* dan keyin keladi: *to‘rttalimiz,*

beshtalamiz(beshchalamiz), oltitalamiz. Ba'zan ma'noni kuchaytish va ta'kidlab ko'rsatish uchun *-ov, -ala* affiksini olgan sonlardan oldin kishilik, ko'rsatish olmoshlari yoki *har* so'zi kelishi mumkin: *biz ikkovimiz, siz uchalangiz, sen ikkalang, har ikkalasi* kabi: *Ayvonchani, har ikkala uyni, hovlini tozaladi* kabi misollar orqali buning isbotini aniq ko'rish mumkin.

Ayrim vaqtda olmosh va *har* so'zi son oldida birga kela olishi ham mumkin: *sizlar har ikkalangiz, biz har uchovimiz.* Lekin bu affiksni olgan so'z egalik affiksini olmaganda, gapda aniqlovchi (izohlovchi), egalikni olganda ega, to'ldiruvchi, kesim bo'lib kelishi mumkin: *ikkala qiz so'zlashdi. Ikkalasi birga ishlaydi, Terimchilarning uchalasiga ham mukofot berildi.* Ba'zan *-ala* va *-ov* affikslari birga ishlatilishi mumkin: *Bolalarning uchaloqi babbaravar o'sishdi. -ov+la+b* yoki *-ov+la +sh +ib* affikslarining sanoq sonlarga qo'shib kelishidan birgalik sonlar yasaladi: *Bu vazifani ikkovlab ishladi. O'roz og'am bilan akam ikkovlashib bir hovlini ijaraga olshyapti.*

Bu qo'shimcha o'zbek tilining izohli lug'atida quyidagicha izohlangan: **1)** *-ala* ba'zi sonlarga qo'shib, birgalik ma'nosini anglatuvchi jamlovchi son shaklini yasaydi: *beshala, ikkala, to'rtala, uchala;* **2)** *-ala (-a+la)* fe'llarga qo'shib, intensivlik ma'nosini ifodalaydi: *qaytalamoq, quvalamoq.* [8,573]

A.G'ulomov, A.N.Tixonov, R.Qo'ng'urovlarning "O'zbek tili morfem lug'ati" da quyidagicha izohlanadi. **1)** *-ala* forma yasovchi, ikki, uch, to'rt, besh sonlarining jamlovchisi (*uch/ala, to'rt/ala, besh/ala*) turini hosil qiladi; **2)** *-ala (-a+la)* fe'llarga qo'shib, intensivlik ma'nosini ifodalaydi: *quv/ala/moq, qayt/ala/moq.*[7,402]

-ala qo'shimchasining etimologiyasi va davrlar bo'yicha qo'llanilishini buyuk turkolog olimlar: A.G'ulomov, A.N.Kononov, A.M. Sherbak, F.G.Is'hoqov, N.X.Bayevalar jiddiy tadqiqotlar olib borishgan.

A.G'ulomov, F.G.Is'hoqov *-ala* qo'shimchasining kelib chiqishini quyidagicha ko'rsatishadi: *-ala < av+lag' < ag'u+la.* A.N.Kononov *-ala* affiksining kelib chiqishini *-ala < av-la+-n* shaklda keltirib o'tadi. Bu etimologiyani Brokkelman, Ryasyanen, Zayonchkobskiy kabi tilshunolar ham o'z asarlarida qayd etganlarini keltiradi.[4,169]

Bu qo'shimcha hozirgi ayrim turkiy *oltoy, tuva, shor* tillarida ishlatiladi. Bu qo'shimcha tarkibidagi *-la* elementini V.Bang *-la ju* so'ziga olib borib bog'laydiki, bu faraz ko'pgina turkiy tillar va ularning shevalaridagi boshqa ko'rinishdagi jamlovchi sonlarga e'tibor berilsa, ancha asoslidir: *osävlän, dürtävlän, altavlap, altavlaship.*

Ko'rinadiki, shakl yasovchi qo'shimchalarga bag'ishlangan bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Shu ishlarga qaramay, qo'shimchalarning o'zbek tilidagi qo'llanilish doirasi to'lig'icha hal qilinmagan. Chunki bir-birini inkor etuvchi bahsli fikrlar o'z yechimini topgani yo'q. Qo'shimchalarning kelib chiqishini ya'ni etimologiyasini shunday bahsli muammolar sirasiga kiritish mumkin.

-roq affiksi etimologiyasi qadimgi *arax* yuklamasi bilan bog'liqligi va davrlar bo'yicha qo'llanilishida ko'rib o'tganimizdek, bu affiks sifatning qiyosiy darajasini, o'z o'rnini bilan, ozaytirma daraja shaklini ham hosil qilishda ham qo'llanadi. *-ov* affiksi jamlovchi son shaklini hosil qilishda, asosan, 2, 3, 4 sonlariga qo'shib kelib, etimologiyasi esa, *-ag'u, -ägü* affikslariga borib taqaladi. *-ala* affiksi jamlovchi son shaklini hosil qilishi bilan birga fe'ning modal shaklini ham shakllantirishda faol qo'llaniladi. Yuqorida ko'rib o'tilgan affikslarning har birining turkiy tillarda o'z variantlari mavjuddir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurahmonov G'., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, -T., 2008. - 528 b.
2. Abdurasulov Yo. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. -T., Fan, 2009. -260 b.
3. Berdialiyev A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Xo'jand, 2015. - 136 b.

4. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка . М –Л.,1960. – 450-b.
5. То‘uchiboyev В. О‘zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. –Т., О‘qituvchi, 1996. –174 b.
6. Tojiyev Y. О‘zbek tilida affiksial sinonimiya, fe‘l yasovchi affikslar haqida. –Т., Universitet, 1992
7. G‘ulomov A. Tixonov A.N. Qo‘ng‘urov R. О‘zbek tili morfem lug‘ati. О‘qituvchi, 1977. –460 b.
8. О‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. О‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. 5 jildlik. –592 b.